



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA "AKT XIZMATLARI"	
TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR	
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich	
TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG'LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN	
LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O'ZBEKISTON	
SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne'matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek	
ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ	
ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна	
ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	
ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли	
ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING	
USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS	
XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna	
QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR	
XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li	
INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov	
O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING	
HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS)	
ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI	
HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
O'ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI	
QO'LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI	
BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSİYALAR KESIMIDA)	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ

CONTENTS

INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi	
IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna	
KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich	
GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi	
ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна	
BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich	
Shukurova Nilufar Qahramonova	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao	
USTAMA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna	
INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	



TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

L.S. Azimova

azimovalola596@gmail.com

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda xomashyo, mehnat, moliyaviy mablag'lar, energiya, suv, vaqt va axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, korxonalarda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, chiqindilarni kamaytirish, logistika va zaxira boshqaruvinini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda qayta ishlash va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berildi. Tadqiqot natijasida to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, iqtisodiy resurslar, samaradorlik, resurs tejamkorlik, energiya samaradorligi, suvdan foydalanish, mehnat unumdorligi, raqamlashtirish, logistika, sirkulyar iqtisodiyot.

Аннотация: В статье раскрыты теоретические, методологические и практические аспекты эффективного использования экономических ресурсов на предприятиях текстильной промышленности. Системно проанализированы факторы, влияющие на повышение эффективности использования сырья, труда, финансовых средств, энергии, воды, времени и информационных ресурсов. Обоснованы приоритетные направления внедрения ресурсосберегающих технологий, цифровизации производственных процессов, сокращения отходов, совершенствования логистики и управления запасами, повышения производительности труда, а также применения принципов переработки и циркулярной экономики. По итогам исследования предложен организационно-экономический механизм повышения эффективности использования ресурсов на текстильных предприятиях.

Ключевые слова: текстильная промышленность, экономические ресурсы, эффективность, ресурсосбережение, энергоэффективность, использование воды, производительность труда, цифровизация, логистика, циркулярная экономика.

Abstract: This article explores the theoretical, methodological, and practical aspects of the efficient use of economic resources in textile industry enterprises. The study systematically analyzes the factors affecting the efficiency of using raw materials, labor, financial assets, energy, water, time, and information resources. It also substantiates the priority areas for introducing resource-saving technologies, digitalizing production processes, reducing waste, improving logistics and inventory management, increasing labor productivity, and applying recycling and circular economy principles. Based on the results, an organizational and economic mechanism for improving resource efficiency in textile enterprises is proposed.

Keywords: textile industry, economic resources, efficiency, resource saving, energy efficiency, water use, labor productivity, digitalization, logistics, circular economy.

KIRISH

To'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotning eksportbop, ko'p tarmoqli va yuqori bandlik yaratadigan tarmoqlaridan biri bo'lib, u sanoat ishlab chiqarishi, tashqi savdo, hududiy ixtisoslashuv va yangi ish o'rinlari shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Ushbu tarmoqning iqtisodiy ahamiyati faqat tayyor mahsulot hajmi bilan emas, balki xomashyodan boshlab qayta ishlash, bo'yash, tikuv-trikotaj va logistika bosqichlarigacha bo'lgan



butun qiymat zanjirida katta resurslar aylanishini ta'minlashi bilan ham belgilanadi. Shu sababli to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi korxona daromadlilik, tannarx barqarorligi va bozordagi raqobat ustunligining markaziy omiliga aylanmoqda [1].

Bugungi global ishlab chiqarish tizimida to'qimachilik korxonalari bir vaqtning o'zida bir necha bosim ostida faoliyat yuritmoqda: energiya va suv resurslari narxining oshishi, ekologik talablarning kuchayishi, chiqindilarni boshqarish muammolarining dolzarblashuvi, logistika xarajatlarining ortishi va buyurtmalarni tezkor bajarish zarurati. Xalqaro tashkilotlar tahlillarida to'qimachilik qiymat zanjiri resurs sig'imi yuqori bo'lgan sohalardan biri sifatida tavsiflanadi; ayniqsa suv, energiya, kimyoviy moddalar va chiqindilar bilan bog'liq bosqichlarda samaradorlikni oshirish dolzarb vazifa sifatida ko'rsatiladi [2].

Shu nuqtai nazardan, korxonalarda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish faqat xarajatlarni qisqartirish vositasi emas, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, sifatni yaxshilash, ekologik mas'uliyatni oshirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash omili hisoblanadi. Ayniqsa, resurs samaradorligi, sirkulyar iqtisodiyot va raqamli boshqaruvni integratsiyalashtirish holda qo'llash bugungi to'qimachilik sanoati rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [3].

Mazkur maqolaning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, resurs yo'qotishlarining asosiy manbalarini aniqlash hamda korxona samaradorligini oshirishga qaratilgan aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'qimachilik sanoatida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda birinchi navbatda energiya va suv tejamliligi yo'nalishi alohida ajralib turadi. UNIDO materiallarida to'qimachilik ishlab chiqarishining ayniqsa bo'yash, yuvish, bug'lash va pardoqlash bosqichlari katta energiya va suv sarfi bilan tavsiflanishi, shuning uchun texnologik operatsiyalarni optimallashtirish, issiqlikni qayta tiklash, bug' tizimlarini nazorat qilish va energiya monitoringini tashkil etish muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, resurs samaradorligi konsepsiyasi mahsulot sifatini saqlagan holda kamroq material, kamroq energiya va kamroq suv sarfi orqali ko'proq iqtisodiy natijaga erishishni nazarda tutadi.

Adabiyotlarda ikkinchi muhim yo'nalish sifatida sirkulyar iqtisodiyot yondashuvi shakllangan. UNEP, OECD, EEA va IFC manbalarida to'qimachilik sanoatida an'anaviy chiziqli model — ya'ni "resurs olish, ishlab chiqarish, iste'mol qilish va chiqindiga aylantirish" — o'rniga materiallarni iqtisodiy aylanmada uzoqroq ushlab turish, qayta ishlash, qayta foydalanish, ta'mirlash va ikkilamchi xomashyo ulushini oshirish zarurligi ta'kidlanadi [4]. Bu yondashuv resurslarga bosimni kamaytirish bilan birga tannarxni optimallashtirish va yangi biznes modellarini shakllantirish imkonini ham beradi.

Uchinchi yo'nalish raqamlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv bilan bog'liq. ADB va boshqa xalqaro manbalarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa ERP, MES, ishlab chiqarish monitoringi, talab prognozi, ombor hisobi va raqamli izchillik vositalari ta'minot zanjiridagi yo'qotishlarni kamaytirishi, zaxiralarni aniqroq boshqarishi va ishlab chiqarish tsiklini tezlashtirishi qayd etiladi. Raqamlashtirish nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki resurs sarfi, nuqsonlar va kechikishlar bo'yicha tezkor qaror qabul qilish imkonini ham kengaytiradi [5].

To'rtinchi yondashuv mehnat unumdorligi va institutsional boshqaruvni qamrab oladi. ILO hamda IFC materiallarida to'qimachilik va tikuvchilik tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish, xodimlar malakasini rivojlantirish, ish joylarini ratsional tashkil etish, ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash va ijtimoiy-mehnat sharoitlarini yaxshilash korxona raqobatbardoshligining muhim omili sifatida baholanadi. Demak, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish faqat texnik tejamlilik emas, balki boshqaruv, mehnat va texnologiya uyg'unligiga tayanuvchi ko'p omilli jarayondir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv asosida to'qimachilik korxonasi iqtisodiy resurslar harakati sodir bo'ladigan murakkab ishlab chiqarish-iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, ilmiy umumlashtirish, mantiqiy mushohada va funksional guruhlash metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar korxonadagi xomashyo, energiya, suv, mehnat, moliyaviy mablag' va axborot resurslari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

Metodologik jihatdan tadqiqot uch asosiy tamoyilga tayandi. Birinchisi, **resurs tejamlilik tamoyili** bo'lib, unda iqtisodiy samara kamroq sarf bilan yuqoriroq natija olish orqali baholandi. Ikkinchisi, **sirkulyar tamoyil** bo'lib, bunda chiqindi va ikkilamchi mahsulotlarning iqtisodiy qiymati qayta ko'rib chiqildi. Uchinchisi esa **raqamli boshqaruv tamoyili** bo'lib, unda real vaqt rejimida monitoring, nazorat va prognoz asosida resurslardan foydalanish samaradorligi oshirilishi tahlil qilindi.



Shuningdek, iqtisodiy resurslar samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanildi: mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xomashyo sarfi, energiya va suv sarfi, mehnat unumdorligi, zaxiralarning aylanish tezligi, nuqsonli mahsulot ulushi, ishlab chiqarish tsikli davomiyligi va chiqindining qayta ishlanish darajasi. Ushbu ko'rsatkichlar to'qimachilik korxonasida resurslardan foydalanish sifatini kompleks baholash uchun muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni bir necha asosiy guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — **xomashyo resurslari**. Paxta tolasi, ip-kalava, bo'yoqlar, kimyoviy reagentlar va yordamchi materiallar mahsulot tannarxida salmoqli ulushni tashkil etadi. Xomashyoning me'yorida ortiq sarflanishi, noto'g'ri omborlash, chiqindilarning ko'payishi va texnologik nuqsonlar resurs isrofini kuchaytiradi. Shu sababli sarf me'yorlarini qayta ko'rib chiqish, kiruvchi xomashyo sifatini nazorat qilish, qaytim materiallar hisobini yuritish va ikkilamchi foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [7].

Ikkinchi guruh — **energiya resurslari**. To'qimachilik tarmog'ining ayrim bosqichlari, ayniqsa bo'yash va pardoqlash jarayonlari yuqori issiqlik hamda elektr energiyasi talab qiladi. Amaliyotda bug' tarmoqlaridagi yo'qotishlar, uskunalarning past foydali ish koeffitsiyenti, issiqlikni qayta ishlatish tizimlarining yetarli emasligi va energiya sarfi bo'yicha tezkor nazoratning sustligi xarajatlarni oshiradi. Energomonitring, issiqlik almashinish uskunalari, energiya auditi, issiqlikni qayta tiklash va energiya tejamlor jihozlardan foydalanish korxonaning umumiy xarajatlari tarkibida sezilarli tejash beradi [8].

Uchinchi guruh — **suv resurslari**. Suv to'qimachilik sanoatida faqat texnologik resurs emas, balki ekologik va moliyaviy omil ham hisoblanadi. Oqartirish, bo'yash, yuvish va yakuniy pardoqlash jarayonlarida suv sarfining yuqoriligi ishlab chiqarish tannarxini oshirish bilan birga oqova suvlarni tozalash xarajatlari ham ko'paytiradi. Shu bois yopiq suv aylanish tizimlari, qayta foydalanish, oqova suvni qayta ishlash, kam suv talab qiluvchi texnologiyalar va jarayonlar bo'yicha normativ nazoratni kuchaytirish zarur.

To'rtinchi guruh — **mehnat resurslari**. Korxonada mehnat unumdorligi past bo'lsa, xomashyo va energiya bo'yicha tejash choralarning natijasi ham to'liq namoyon bo'lmaydi. Malaka yetishmasligi, mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, operatsiyalar o'rtasidagi uzilishlar, qo'lda nazoratning haddan tashqari ko'pligi va vaqt yo'qotishlari mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajatni oshiradi. Shuning uchun xodimlarni muntazam o'qitish, ish normativlarini takomillashtirish, motivatsiya mexanizmlarini natijadorlikka bog'lash va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash muhim hisoblanadi.

Beshinchi guruh — **moliyaviy resurslar**. Aylanma mablag'larning sekin aylanishi, ortiqcha zaxiralar jamlanishi, buyurtmalar bo'yicha noto'g'ri rejalashtirish, ortiqcha xarid va debitor qarzdorlikning ortishi korxona likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, xomashyo zaxiralari, yarim tayyor mahsulot va tayyor mahsulot o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelganda ishlab chiqarishning ichki xarajatlari ortadi. Shu bois byudjetlashtirish, xarajat markazlari bo'yicha tahlil, moliyaviy intizom va zaxira siyosatini optimallashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning ajralmas qismidir.

Oltinchi guruh — **axborot va vaqt resurslari**. Zamonaviy to'qimachilik korxonasida vaqtning iqtisodiy qiymati juda yuqori. Buyurtmani qabul qilishdan tortib, mahsulotni jo'natishgacha bo'lgan muddatning qisqarishi korxonaning bozorga moslashuvchanligini oshiradi va mablag'larning aylanish tezligini jadallashtiradi. ERP, CRM, MES va raqamli ombor tizimlarining joriy etilishi ishlab chiqarish rejalashtirishini aniqroq qiladi, ortiqcha zaxiralarni kamaytiradi, uzilishlarni oldindan ko'rish imkonini beradi va buyurtma bajarilishining shaffofligini oshiradi.

Yettinchi yo'nalish — **chiqindilarni kamaytirish va sirkulyar iqtisodiyotga o'tish**. To'qimachilik korxonalarida kesim qoldiqlari, nuqsonli mato, qayta ishlanmaydigan yordamchi materiallar va foydalanilgan kimyoviy vositalar ko'rinishidagi chiqindilar mavjud. Ularni iqtisodiy resurs sifatida qayta ko'rib chiqish, ya'ni chiqindini ikkilamchi xomashyo yoki qayta ishlab chiqarish manbaiga aylantirish korxona xarajatlari pasaytiradi. Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari bo'yicha chiqindini kamaytirish, qayta ishlash, uzoq foydalanish va mas'uliyatli ishlab chiqarish tizimini joriy etish bugungi kunda korxonalarning bozor talablari va ekologik majburiyatlariga ham mos keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik korxonasida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning eng maqbul modeli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: resurslarni aniq rejalashtirish → sarfni doimiy monitoring qilish → yo'qotish manbalarini aniqlash → texnologik va tashkiliy optimallashtirish → qayta foydalanish va qayta ishlash → natijadorlikni baholash. Mazkur model korxonada bir martalik tejash emas, balki barqaror samaradorlikni shakllantiradi (1-jadval).

Jadval 1. To'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari¹

Resurs turi	Asosiy muammo	Samaradorlikni oshirish choras	Kutilayotgan natija
Xomashyo	Ortiqcha sarf, chiqindi, nuqson	Sarf me'yorlarini optimallashtirish, qayta ishlash, sifat nazorati	Tannarx pasayadi, chiqindi kamayadi
Energiya	Issiqlik va elektr yo'qotishlari	Energomonitoring, issiqlikni qayta tiklash, tejamkor uskuna	Energiya xarajati qisqaradi
Suv	Yuqori suv sarfi, oqova hajmi	Yopiq sikl, suv qayta aylanishi, texnologik modernizatsiya	Suv sarfi va ekologik xarajat kamayadi
Mehnat	Past unumdorlik, vaqt yo'qotishi	Malaka oshirish, standartlash, rag'batlantirish	Ishlab chiqarish hajmi va sifat oshadi
Moliyaviy mablag'	Ortiqcha zaxira, sekin aylanish	Byudjetlashtirish, xarajat nazorati, zaxira boshqaruvi	Aylanish tezlashadi, likvidlik yaxshilanadi
Axborot	Qaror qabul qilishning sustligi	ERP/MES/CRM tizimlari, raqamli monitoring	Tezkor boshqaruv va aniq rejalashtirish
Logistika va vaqt	Kechikishlar, ortiqcha transport xarajati	Ta'minot zanjirini optimallashtirish, rejalashtirish	Yetkazib berish va ishlab chiqarish tsikli qisqaradi

Jadvaldan ko'rinadiki, iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirish faqat bitta resurs turiga ta'sir ko'rsatish bilan emas, balki korxonaning barcha funksional bo'g'inlarini qamrab oluvchi integrallashgan boshqaruv mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, energiya, suv, xomashyo, mehnat va axborot resurslari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik samaradorlikka kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoati korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligi, mahsulot tannarxi, bozor raqobatbardoshligi, eksport salohiyati va ekologik mas'uliyat darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Resurslardan oqilona foydalanish texnologik yangilanish, tashkiliy boshqaruv, mehnat unumdorligi, logistika samaradorligi va raqamli transformatsiyani yagona tizim sifatida ko'rishni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Birinchidan, korxonalarda xomashyo, energiya va suv sarfi bo'yicha aniq normativlar hamda real vaqt monitoring tizimi joriy etilishi lozim. Ikkinchidan, bo'yash va pardoqlash sexlarida kam suv va kam energiya talab qiladigan texnologiyalarni qo'llash zarur. Uchinchidan, chiqindilarni saralash, qayta ishlash va ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanishning ishlab chiqarish ichki mexanizmi ishlab chiqilishi kerak. To'rtinchidan, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish, ish joylarini ergonomik tashkil qilish va natijadorlikka asoslangan rag'batlantirish tizimini kuchaytirish talab etiladi.

Beshinchidan, korxonalarda ERP, CRM, MES va raqamli ombor hisobini joriy etish orqali buyurtma, zaxira, ishlab chiqarish va yetkazib berish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish maqsadga muvofiq. Oltinchidan, sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida uzoq muddatli korporativ strategiya ishlab chiqilib, unda resurslarning yopiq aylanishi, chiqindini kamaytirish va qayta ishlash ko'rsatkichlari aniq belgilanishi zarur. Yettinchidan, xalqaro ekologik va samaradorlik standartlariga mos boshqaruv tizimlarini joriy etish korxonalarning tashqi bozorlardagi barqaror pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish ichki imkoniyatlarni safarbar etish, tannarxni pasaytirish, daromadlilikni oshirish va barqaror rivojlanish modelini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvni tizimli ravishda joriy etish kelgusida tarmoqning innovatsion va eksport salohiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNIDO. *Handy Manual: Textile Industry. Output of a Seminar on Energy Conservation in Textile Industry*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 1992.
2. UNIDO. *Industrial Resource Efficiency Division and Circular Economy*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2020.
3. UNEP. *Sustainability and Circularity in the Textile Value Chain: Global Stocktaking*. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2023.

¹ Muallif tomonidan tuzildi.



4. UNEP. *Sustainability and Circularity in the Textile Value Chain: A Global Roadmap*. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2023.
5. OECD. *Extended Producer Responsibility in the Garments Sector*. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Lee, K. *Digitalization of Value Chains in the Apparel Industry: Implications for SMEs and Startups*. Asian Development Bank, 2022.
7. IFC. *IFC's Engagement in the Apparel & Textile Sectors in Emerging Markets*. International Finance Corporation, 2017.
8. ILO. *Employment, Wages and Productivity in the Asian Garment Sector: Taking Stock of Recent Trends*. International Labour Organization, 2022.
9. EEA. *Textiles in Europe's Circular Economy*. European Environment Agency, 2019.
10. IFC. *Thematic Review: Circularity and Morocco's Textile Industry*. International Finance Corporation, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>